

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**DORIVOR O'SIMLIKLAR VA BOTANIKA KAFEDRASI**



***TALABA MUSTAQIL ISHI VA KOMPETENTLIKNI SHAKLLANISHI***  
***(Elektron kontent)***

Guliston – 2026

**Karshiboev H.K. Talaba mustaqil ishii va kompetentlikni shakllanishi.- Guliston, 2026. -18 b.**

Elektron kontent O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziring 2024 yil 29 –aprel 136-son buyrug'i bilan tasdiqlangan mustaqil ta'limga oid tartibni hisobga olingan ishlab chiqilgan bo'lib, unda mustaqil ta'lim tushunchasi, uning turlari va amalga oshirish yo'llari, talaba mustaqil ishining talabada kompetentlikni shakllanishdagi roli tug'risida bayon qilingan.

Ushbu elektron kontent biologiya mutaxassisligi yuqori kurs talabalariga, mutaxassislik fan professor-o'qituvchilariga va doktoranlarga mo'ljallangan.

Mazkur kontent Guliston davlat universiteti O'quv-metodik kengashi (2026 yil 29-yanvar 6 – bayonnoma) tamonidan nashrga tavsiya qilingan

**Muallif :** Karshibaev H. K. - Guliston davlat universiteti professori, b.f.d.

*E-mail: hkarshibaev\_53@ mail.ru*

# TALABA MUSTAQIL ISHI VA KOMPETENTLIKNI SHAKLLANISHI

## Asosiy savollar:

- 1) *Mustaqil ta'lim tushinchasi.*
- 2) *Mustaqil ta'lim –ta'lim jarayonining muhim komponenti sifatida.*
- 3) *Mustaqil ta'lim turlari va xillari*
- 4) *Mustaqil ta'limning talaba kompetentligini shakllanishidagi roli.*

**Таянч сўзлар:** таълим жараёни, мустақил таълим, мустақил таълим принциплари, мустақил таълим турлари, мустақил иш, талаба мустақил иши, КОМПИТЕНТЛИК.

### 1). **Mustaqil ta'lim tushinchasi.**

«Mustaqil ta'lim» tushunchasi “Pedagogika fanidan izohli lug'at” da olingan bilim, ko'nikma va malakani mustahkamlash, qo'shimcha materialni o'rganish maqsadidagi o'quv shakli deb qaraladi (2). Ayni vaqtda ilmiy va o'quv adabiyotlarda «Mustaqil ta'lim olish», «O'zini tarbiyalash», «Mustaqil o'qish» tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va adabiyotlar tahlili asosida mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berildi: *mustaqil ta'lim – mutaxassis yordamida yoki yordamisiz biror vazifa (masala, muammo)ni mustaqil o'rganish asosiga quriladigan o'quv faoliyatidir.*

*Talaba mustaqil ishi (TMI) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan, talaba tomonidan o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismi bo'lib, fan o'qituvchisi maslaxati va tavsiyalari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida bajariladigan tizimli faoliyatdir (2).*

Mustaqil ta'lim turlari va toifalari didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilinsa, samarali shakllari va vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda o'tiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimlilik, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta'lim olish

faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga asosiy e'tiborni qaratish zarur.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning o'quv faoliyatini kuzatish davomida shu narsa aniqlandiki, ongli qiziqish mustaqil faoliyatga undovchi, havas uyg'otuvchi kuch bo'lib hisoblanadi.

Ongli qiziqish – mustaqil faoliyatning eng muhim ko'rsatgichi, yuqori darajasidir. Bu esa fan o'qituvchilari mahoratining darajasiga bog'liqligi sababli talabalarda u yoki bu fan yoki kasb mutaxassisligiga nisbatan qiziqish shakllanadi.

## **2) Mustaqil ta'lim –ta'lim jarayonining muhim komponenti sifatida.**

Mustaqil ish mustaqil ta'lim jarayonining eng muhim qismlaridan biri sifatida muhim metodologik ahamiyatga ega bo'lib, fanlarni o'rganishda o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda, o'quv adabiyotlaridan zarur bilimlarni mustaqil holda o'zlashtirishda o'ziga xos professionalizmni shakllantirishning garovi hisoblanadi.

Fanlardan mustaqil ishlar, birinchi navbatda o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga, o'quvchilarda ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularda tez o'zgaruvchi axborotlar oqimida tegishli yo'nalishlarni aniqlashga yo'naltiriladi va ularni o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etishga va boshqarishga o'rgatadi.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish asosida qo'yilgan muammolarni mustaqil tahlil qilish, ularni hal etishning optimal variantlarini topish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Shu asosda oliy ta'lim tizimida fanlardan mustaqil ishlarni shartli ravishda ikkita tarkibiy qismga ajratish mumkin:

- Tegishli fan o'qituvchilari rahbarligi va nazorati asosida bajariladigan mustaqil ishlar;

- Talabalar tomonidan erkin va mustaqil holda bajariladigan ishlar.

Fanlardan birinchi yo'nalishdagi mustaqil ishlar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda berilgan bilimlarni mustahkamlash, darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanib chuqurlashtirish, shu asosda kelgusida o'rganiladigan mavzularga tayyorlanish, adabiyotlar va boshqa axborot vositalaridan olingan yangi ma'lumotlar asosida konspektlar va qisqa referatlar tayyorlashni qamrab oladi (3).

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishdan

asosiy maqsad ularning ilmiy-texnikaviy hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kasbiy-ijodiy tayyorgarlik darajasini oshirishdir. Bu esa talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish shakllarini takomillashtirishni, zamonaviy talablar asosida yangilarini tashkil etish va rivojlantirishni taqozo etadi (2).

Mazkur hujjatda o'quv-tarbiya jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish mexanizmlarini yaratish zarurligi belgilangan va talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish hamda yosh ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar ko'zda tutilgan:

- talabalar mustaqil ishlarini individual va jamoa bo'lib bajarishga o'rgatish uchun zarur tashkiliy, metodik va moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar yaratish;

- oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan talabalar mustaqil ishlarida talabalarning keng ishtirokini ta'minlash, yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallash jarayonini turli shakllarda rivojlantirish mexanizmini yaratish va yo'lga qo'yish;

- kafedralar va fakultetlarda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni rivojlantirish hamda ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi o'quv-ilmiy laboratoriyalar, ilmiy-ijodiy to'garaklar va o'quv markazlarini tashkil etish;

- talabalarning o'quv mashg'ulotlari va talabalar mustaqil ishlari integratsiyasini ta'minlash; ularni mustaqil ish, kurs ishi loyihasi, bitiruv - malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyalari doirasida turli xildagi o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish.

Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, uning echimi sifatida oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan talabalar mustaqil ishlari samaradorligini oshirishning pedagogik asoslarini yaratish sohasida izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ma'lum yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida Respublikamiz olimlari Amerika, Evropa va Osiyo qit'alaridagi rivojlangan davlatlarning etakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida bo'lib, ularning tajribalarini o'rganib keldilar.

Zamonaviy universitet modeli o'ziga xos amal qilinadigan tamoyillarni ishlab chiqishni talab etadi. Boshqaruv va faoliyat yuritish usullari, vositalari hamda shakllari o'ziga xos tarzda yo'lga qo'yilishi lozim bo'ladi.

Ta'lim jarayonining bosh ob'ekti va sub'ekti sifatida talaba, ya'ni bo'lajak mutaxassis shaxsi belgilab olinadi. Uning ehtiyoji, qobiliyati, qiziqishi, imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va ta'lim yakunida erishiladigan natijasining ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Talabalikka qabul qilingan kundan boshlab talabalarga har bir fanning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rgatish bilan birga, ularda kasb tayyorgarligini oshirish hamda ilmiy-ijodiy faoliyatini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bunda esa talabalarni mustaqil bilim olish, o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni turli shakllarda mustaqil bajarish hamda mustaqil fikr yuritish alohida o'rin tutadi.

Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ta'limdan foydalangan holda talabalarda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish katta ahamiyatga egadir. Talabalarning mustaqil fikr yuritishi ularni aqliy va ijodiy faollikka undash, erkin fikr, kasbiy mas'uliyat elementlarini his qilishiga qaratilgan jarayondir.

Mustaqil ta'lim - belgilangan o'quv topshiriqlarni o'quvchilar tomonidan mustaqil va ijodiy bajarishga mo'ljallangan o'quv faoliyatidir.

Bu o'rinda olimlarimiz tomonidan mustaqil ta'limni quyidagi asosiy printsiplar asosida tashkil etilishi tavsiya etiladi:

- mustaqil ta'limni insonparvarlik va demokratik ruhda tashkil etilishi;
- mustaqil ta'limning bilim oluvchi shaxsiga yo'naltirilganligi;
- mustaqil ta'limni tashkil etishda individual va jamoaviy yondashuv;
- mustaqil ta'limda talabalarning mustaqil ijodiy fikrlashi, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilganligi;
- mustaqil ta'limning ilmiy va dunyoviy bilimlarga asoslanganligi;
- mustaqil ta'limda hayotiylik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligining ta'minlanganligi;
- mustaqil ta'lim izchillik, tizimlilik va uzviylikka asoslanganligi va h.k.

Mazkur tamoyillar asosida mustaqil bilim olish har bir talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarini to'g'ri va samarali amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuni qayd etish joizki, mustaqil ta'limning axborot metodik ta'minotini takomillashtirishda pedagogik va axborot texnologiyalar asosiy o'rin tutadi. Shu ma'noda Guliston davlat universitetida yaratilgan o'quv-uslubiy majmualar va boshqa o'quv

dadabiyotlarning elektron variantlari asosida ta'lim portalini tashkil etilishi va amaliyotga joriy etilishi mazkur maqsadlarga qaratilgandir. Ularga asoslangan mashg'ulotlar deyarli barcha talabalarning ongli, faol va mustaqil bilim egallashlariga imkon yaratmoqda.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ko'zlangan natijani qo'lga kiritish, qo'yilgan barcha maqsadlarga erishish ta'lim muassasasidan tegishli talablarga javob berishni taqozo etadi (4).

Oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etilishi orqali ta'lim samaradorligini oshirish shuning uchun ham muhimki, talabalar yosh xususiyatlariga ko'ra mustaqil faoliyat yuritish, jamoada o'z o'rnini topish va hayotiy maqsadini belgilab olishga nisbatan jiddiy munosabatda bo'ladilar (5). Shuning uchun ham talabalarga ijtimoiy munosabatlarning huquqiy me'yorlarini singdirish, ularda nomaqbul xatti-harakatlarni sodir etishdan himoya qiluvchi mezonlar haqida tasavvur hosil qilish muhimdir. Oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan talabalar mustaqil ishlari uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratish taqozo qilinadi:

1. Talabalarda mustaqil faoliyat yuritishiga oid madaniyatning shakllanishiga zamin hozirlash.

2. Talaba-yoshlarda mustaqil ishlarini amalga oshirish nafaqat davlat, balki shaxs manfaatlarini ham qondirishiga ishonchning qaror topishiga erishish.

3. Talabalarda mustaqil ishlariga oid bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelishini ta'minlash.

4. Talabalarda mustaqil ishlarini olib borish me'yorlariga nisbatan hurmatni qaror toptirish.

5. Talabalarda mustaqil faoliyatiga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

6. Talabalarda bilimsizlikka qarshi kurash tuyg'usini tarbiyalash.

7. Talablarda pedagogik madaniyat va faollikni qaror toptirish.

8. Talabalarda mustaqil ishlarni tashkil etish orqali bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Oliy o'quv yurtlarida talabalar mustaqil ishlari samaradorligini oshirish uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, shuningdek, ijtimoiy tashkilotlar, oila, mahalla va jamoat tashkilotlari bilan mustahkam aloqa o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Zero, shaxsda mustaqil fikrlash, mustaqil dunyoqarash, o'z fikrini erkin bayon etish va

mustaqil amaliy faoliyat yuritish madaniyati ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin, shaxsning zamonaviy bilimlarni muntazam ravishda egallab borishiga bo'lgan munosabati jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Fanlardan o'quvchilarning mustaqil ishlarining o'quv- metodik ta'minotini tayyorlash fan o'qituvchilariga yuklatilgan va ular fanlardan mustaqil ishlar mazmunini belgilashga qo'yilgan quyidagi talablarga asoslanadi:

1. Fanlardan mustaqil ishlar mazmunining amaldagi o'quv dasturiga mosligi va tizimlilik;

2. Mustaqil ishlarda qo'yilgan vazifalarning o'quvchilarda intellektual rivojlanishni ta'minlashga va individual yondoshuvni amalga oshirishga yo'naltirilganligi hamda o'quvchilarning imkoniyatlariga mosligi;

3. Mustaqil ish topshiriqlarining ajratilgan vaqt me'yorlariga mos holda tanlanganligi.

Fanlardan mustaqil ishlar topshiriqlarini tayyorlashda o'quv dasturi asosida belgilangan darsliklar va o'quv qo'llanmalariga, ilmiy metodik adabiyotlarga asoslaniladi. Oliy ta'lim tizimida amalda foydalanilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalari mukammal ishlanmaganligi sababli, majburiy va tanlab o'qitiladigan hamda ixtisoslik fanlaridan, o'ziga hos jihatlarini e'tiborga olgan holda, mustaqil ish topshiriqlarini tayyorlashda metodik murakkabliklar hosil bo'lmoqda.

Oliy ta'limda fanlardan mustaqil ish topshiriqlari o'quvchilarning boshlang'ich holatdagi bilim va malakalari hamda har bir kursda o'qitilayotgan fanlarning murakkablik darajasini e'tiborga olgan holda, tabaqalashtirilgan variantlarda tayyorlanadi. Birinchi kurslarda fanlardan mustaqil ish topshiriqlari o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida olgan bilimlarini e'tiborga olgan holda, ularni akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning fan dasturlari talablariga moslashtirish maqsadida murakkablik darajasini tizimli orttirib borgan holda reproduktiv o'zlashtirish darajasida tayyorlanadi.

Ikkinchi va uchinchi kurslarda mustaqil ish topshiriqlari mazmunan murakkablashtiriladi va reproduktiv va produktiv hamda iqtidorli o'quvchilar uchun ijodiy o'zlashtirish darajalariga mos topshiriqlar kiritiladi.

Fanlardan mustaqil ishlarning o'quv-metodik ta'minotini tayyorlash sifatini yaxshilash maqsadida oliy ta'lim muassasalari kafedralari o'zaro hamkorligini yaxshilash va sohaning etakchi professor-o'qituvchilarni fanlardan o'zlashtirish darajalari bo'yicha tabaqalashtirilgan mustaqil ish topshiriqlarini va mustaqil ishlarni tashkil etish hamda samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyanomalar ishlashga jalb etish talab qilinadi.

Fanlardan mustaqil ish topshiriqlarining bajarilishini nazorat qilish va baholashning samarali usullarini tatbiq etish dolzarb muammolardan bo'lib, o'quvchining mustaqil faoliyatini baholashda uning shaxs sifatidagi individual xarakteristikalarini hamda mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda nostandart usullardan foydalanganligi, masalani echishdagi o'ziga hos yondoshuvga ega ekanligi va boshqa omillarni ham e'tiborga olish talab etiladi.

Akademik guruhlardagi talabalarning ishtirokini va faolligini ta'minlash maqsadida fanlardan mustaqil ish topshiriqlarini interfaol usullarni qo'llagan holda bajarilishini tashkil etish va mikroguruhlarni o'zlashtirishlari turlicha bo'lgan o'quvchilardan shakllantirish, mikroguruh liderlarining boshqarish qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

### **3). Mustaqil ta'lim turlari va xillari.**

Mustaqil ta'limni bir qancha turlarga ajratish mumkin. Ulardan biri Oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgani Vazirlikning 2005 yil 21 fevral 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizom" asosida tashkil qilingan talabalar mustaqil ishlari (TMI) hisoblanadi (6). Nizomda TMI o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanishi hamda uslubiy va axborot resurslari bilan ta'minlanishi, shuningdek reyting tizimi asosida baholanishi aniq belgilab quyilgan.

Talabalar tomonidan bajariladigan TMI ni qanday maqsadga qaratilganiga ko'ra ham bir necha toifalarga ajratish mumkin.

Ulardan *birinchisi* oldin o'zlashtirilgan bilimlarni esga tushirish, mustahkamlash va tasavvurni boyitish hisoblanadi. Har qanday egallangan bilim qayta esga tushirib, amalda tatbiq etib turilmasa, ayrim qismlari xotiradan ko'tariladi, esdan chiqadi. Shuning uchun

vaqti-vaqti bilan talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar mustaqil o'qish orqali xotirada mustahkamlanib borilishi foydalidir, ammo takrorlash jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanmaydi.

*Ikkinchi toifasi* bilish-izlanish shaklida amalga oshadi. Bunda talaba o'qituvchi ma'lum qilgan nazariy bilimlarga suyangan holda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga, muammoli topshiriq va vaziyatlarga echim topishga harakat qiladi. Talaba o'zi uchun noma'lum bo'lgan muammolarning echimini topishda tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, taqqoslash kabi jihatlaridan foydalangan holda yangi bilimlarni o'zlashtirib oladi. Hayotiy tajribalari ortadi, o'zlarining ko'rgan-kechirgan, his qilgan, oldin haqiqiy mohiyatiga e'tibor bermagan masalalarga echim topadi.

*Uchinchi toifasi* bilimlarni amalda tatbiq etish bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlar. Bu turdagi ishlarda talabalar olgan bilimlarini hayot bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'laydilar. Tajriba tariqasida turli xil asbob-uskunalar, maketlar yasashi, kompyuter dasturlari tayyorlashi, oddiy texnik ixtirolar qilishi mumkin. Tabiiy va aniq fanlarda mustaqil ta'limning bu turidan ko'p va samarali foydalaniladi. Biologiya fanlariga oid hayvonlardan mulyajlar, o'simlik va uning organlaridan gerbariyalar tayyorlashni misol qilish mumkin.

*To'rtinchisiga* ilmiy-ijodiy xarakterdagi ishlar bilan shug'ullanishni kiritish mumkin. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlardan bajariladigan ijodiy mustaqil ishlar ilmiyligi, badiiy obrazlilik, yangi g'oyalarni ilgari surish va ularga erishish echimlarini topishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Tabiiy fanlardan olgan bilimlariga suyangan holda yangi navlar ustida ish olib borish, chatishtirish, payvand qilish, flora va faunaning sirli jumboqlarini echishga harakat qilinadigan ishlar ham shular jumlasidandir.

Talabalar mustaqil ishi auditoriyada va auditoriyadan tashqarida bajarilishi mumkin. Xozirgi kunda ta'lim oluvchining mustaqil ishi (TOMI) - o'quv- uslubiy adabiyotlar va tavsiyanomalar bilan ta'minlangan, mustaqil holda o'zlashtiriluvchi mavzularning ma'lum bir ruyxati bo'yicha ishlash degan qarashlar ham mavjud (7).

Ammo TMI ni samarali tashkil etish uchun tizimli yondashish, uning maqsad, vazifa va topshiriqlari aniq belgilanishi, topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning xabardor bo'lishi hamda bajarilishi ustidan qat'iy nazorat bo'lishi talab

etiladi. Odatda oliy ta'lim muassasalarda talabalar mustaqil ta'lim olishlari jarayonida ko'proq qo'shimcha adabiyotlarga murojat qiladi. Talabalar uyga berilgan topshiriqlar ustida ishlaydilar, ma'ruzalar, referatlar tayyorlashda ilmiy–ommabop va davriy nashrlardan foydalanadilar. Bu esa mavjud axborot resurs markazlari va tegishli portallar imkoniyatidan oqilona foydalanish, ularning zahiralari yanada kengaytirib borishni talab etadi. Shuningdek, mustaqil ta'limning elektron axborot resurslarini tayyorlash, bilim egallashning intellektual tizimini ishlab chiqish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan sanaladi (8).

#### **5) Mustaqil ta'limning talaba kompetentligini shakllanishidagi roli.**

Kompetentlik atamasi lotincha “competo” so'zidan olingan bo'lib, “erishyapman, munosibman” degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorligini, bilishini va tajribaga ega ekanligini bildiradi (9).

Rus olimlari E.Zeer, D. Zavodchikovlar “kompetentlik” atamasiga mutaxassisning o'z faoliyatini samarali tashkil qilishga qaratilgan hatti-harakatlar yig'indisi deb qarashadi (10). Ogayo shtati universiteti olimlari “kompetentlik” tushunchasini shaxsning ma'lum sohada samarali ishlashi uchun kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar to'plami deb hisoblaydilar.

Ushbu sohaning etakchi tadqiqotchilaridan biri bo'lgan amerika olimi R.Meyers “kompetentlik - bo'lajak mutaxassisning qandaydir ma'lum kriteriyalarga javob berishi emas, balki uni ishlab chiqarishda qo'llab, isbotlay olishidir” – degan xulosani beradi [11].

Rus olimasi M.M.Shalashovanning fikricha mutaxassisning kompetentligi uning integrallashgan shaxsiy xususiyati bo'lib, hayotda va ish faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni o'z bilimi, tajribasi va shaxsiy iqtidori asosida hal qila olish qobiliyati tushuniladi (9).

Odatda ishlab chiqarishda mutaxassisning kompetentligi quyidagi ko'rsatkichlarga qarab aniqlanadi:

- kasbiy layoqatlilik;
- o'z sohasini yaxshi bilishi;
- kasbiy malakasini muntazam oshirib borishi;

- o'z ustida ishlab borishi;
- o'zining qabul qilgan qarorlariga ma'sulligi.

Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) bo'lajak mutaxassisni kompetentligini aniqlash nihoyatda muhim masala sanaladi. Chunki bo'lajak mutaxassisning ishlab chiqarishda faoliyat yuritishi uning kompetentligi bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi vaqtda Rossiya va ayrim qo'shni davlatlar OTMlarida talabani mutaxassis sifatida shakllanganlik darajasini uning o'qish davridagi faoliyatini kompleks baholash orqali amalga oshirish taklif qilinmoqda. Bu holda talabaning quyidagi ishlardagi ishtiroki hisobga olinadi:

- kurs ishlari himoyasi natijasi;
- bitiruv malakaviy ish himoyasi natijasi;
- talabaning ilmiy-tadqiqot ishlardagi ishtiroki;
- talabaning turli tanlov, ko'rgazma va boshqa yig'inlardagi qatnashuvi;
- pedagogik va ishlab chiqarish amaliyot yakunlari;
- talabaning fan olimpiadalari, respublika va xalqaro konferentsiyalar, ilmiy seminarlardagi ishtiroki va erishgan natijalari;
- talaba sport va boshqa sohalarda erishgan yutuqlari.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni kompleks baholash natijasida bitiruvchi talabaning kompetentligini aniqlash mumkin deb hisoblanadi.

Bizning ko'p yillik kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, "kompetentlik" tushunchasi shaxsning kasbiy va shaxsiy xususiyatlari bo'lib, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llay olishi hamda qo'yilgan muammo va vazifalarni mustaqil hal qilish layoqatiga ega ekanligi bilan tavsiflanishi lozim bo'ladi. U o'zida bitiruvchining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini mujassamlashtiradi.

Kompetentlikni shakllantirishda asosiy o'rinni talabalar mustaqil ishlari egallaydi. Chunki bo'lajak mutaxassis faqat bilim va ko'nikmaga ega bo'libgina qolmay, uni amalda qo'llay olishi talab qilinadi. Bunga esa ta'lim jarayonida talabalarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga o'rgatish orqali erishish mumkindir (10).

Hozirgi kunda Respublikamizning tayanch OTMlarida oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining kompetentligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish yuzasidan ayrim ishlar boshlab yuborildi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bo'lajak mutaxassisning kompetentligini shakllantirishda malakaviy amaliyotlarning o'rni ham benihoya kattadir. Shuning uchun OTM larda malakaviy amaliyotlarning o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va uni samaradorligini oshirish masalalarini hal etish zarur hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasining bitiruvchisi amaldagi DTS talablariga ko'ra ma'lum o'quv fanlari bo'yicha davlat attestatsiyasi, bakalavr uchun bitiruv ishi yoki magistr uchun dissertatsiya himoyasini o'z ichiga oladi. Davlat attestatsiyasi komissiyalari yuqoridagilarni hisobga olgan holda bitiruvchilarga kvallifikatsiya berish to'g'risida qaror chiqaradi. Ammo bu ko'rsatkichlarni bitiruvchining kompetentlik darajasini aniqlashda etarli emasligini ko'pchilik tan olmoqda. Ikkinchi tomondan kompetentlik ko'p jihatdan shaxsning intellektual-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Shu sababli bizning fikrimizcha OTMlarda fan bo'yicha talabalarning kompetentligini aniqlashda quyidagi mezonlar ham inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- talabaning fan bo'yicha egallagan bilimi, ko'nikmasi va malakasini amalda qo'llay olishi;
- intellektual qobiliyati;
- psixologik xususiyatlari;
- muammoni mustaqil hal qila olishi;
- yangiliklarga intiluvchanligi;
- o'z ustida ijodiy ishlashi;
- o'z fikrini ayta olishi va himoya qilishi.

Ushbu mezonlar fan bo'yicha talabalarni kompetentlik darajalarini ishlab chiqishda tayanch OTMlar kafedralari tomonidan e'tiborga olinishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar bulajak mutaxasislarni tarbiyalashda asosiy o'rinni mustaqil ta'lim egallashlarini unitmasliklari lozim. Chunki, talaba mustaqil holda shug'ullanganda va o'z ustida ishlaganda bilimni chuqur

o'zlashtirishi mumkin. Mustaqil ishlash jarayonida talabada ishga ijodiy qiziqish paydo bo'ladi, u faollashadi. Shu sababli ta'lim berishda o'quv materialining ma'lum qismini talaba mustaqil ishi sifatida rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Natijada talabalarda kompetentlikni shakllantirish uchun zamin yaratiladi.

Jamiyatning jadal sur'atlar bilan taraqqiy etishi, atrof-muhit muhofazasi, bioxilma-xillikni saqlab qolish masalasi, axborotlashuv jarayoni uzluksiz ta'lim tizimida, ayniqsa, biologiya ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlar doirasida ekologik bilimlarni berish masalalarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Ekologik tarbiya insonning o'zi yashab turgan muhitga, tabiatga yangicha munosabatlarni shakllanishiga zamin yaratadi. Ekologik ta'lim-tarbiyani oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'limdan boshlamoq zarur.

Ma'lumki, oliy ta'lim tizimi mutaxassisni ham ilmiy, ham amaliy va ruhiy hamda ma'naviy jihatdan eng mukammal darajada tayyorlash imkoniga egadir. Bugungi oliy ma'lumotli mutaxassis o'z kasbining bilimdoni bo'lish bilan qanoatlanmasdan, ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyotga mahorat bilan qo'llay oladigan, ijodiy fikrlaydigan, yangilikni tez o'zlashtirib oladigan, o'zi yangilik yaratadigan-bunyodkor shaxs bo'lishi talab etilmoqda. Hozirgi paytda texnika va texnologiya shu darajada rivojlanib ketdiki, uni mukammal egallamagan va ishlata olmaydigan kishi nafaqat ishlab chiqarishda, hatto kundalik maishiy hayotida ham biror samarali natijaga erishishi amri mahol. Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak mutaxassis faqat dars jarayonida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni to'la egallab olishi qiyin. Shuning uchun talabalarning mustaqil bilim olish bilan shug'ullanishi dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mustaqil ta'lim pedagogika fani taraqqiyotining turli davrlari va bosqichlarida olimlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Hali maktab ta'limi mukammal ilmiy asoslangan darajaga etmagan paytlarda etuk mutaxassislar asosan mustaqil bilim olish, tajriba va kuzatishlar o'tkazish, ilmiy-ijodiy izlanish olib borish orqali o'z mahoratlarini takomilga etkazganlar. Bu tajriba hozirgi kungacha o'zining samaradorligini saqlab kelmoqda. Ta'lim mazmuni olimlar va mutaxassislar tomonidan bilim oluvchining aqliy va ruhiy ulg'ayganligiga mos holda tanlanadi. Davlat ta'lim standartlari (DTS), o'quv rejasi, namunaviy dasturlar va darsliklarda u to'la aks ettiriladi. O'quvchi ta'lim mazmunini o'zlashtirish bilan jamiyatda o'z o'rnini topishga, ijtimoiy foydali mehnat

faoliyati bilan shug'ullanishiga, o'zining barcha ehtiyojlarini qondirishga muvaffaq bo'ladi. Mustaqil ta'lim o'quvchidagi intellektual imkoniyatlarni to'la namoyon bo'lishi uchun imkon yaratadi (12).

Oliy ta'lim tizimida amalda qo'llanilayotgan o'quv rejalari va o'quv dasturlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, talaba tomonidan o'rganishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning qariyb teng yarmi (50-60 %) mustaqil ish sifatida o'rganishni talab etadi. Jumladan, "5140100-biologiya" ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlaridan "Botanika" fanidan 300 soat o'quv yuklamasi (120 soat auditoriya, 180 soat mustaqil ta'lim) ajratilgan (13). Auditoriya soatining 60 soati ma'ruzaga, qolgan yarmi amaliy mashg'ulotlariga rejalashtirilgan.

Ma'lumki, o'quv dasturini to'liq o'zlashtirish uchun materialning katta qismini (50-60 % ini) mustaqil ish sifatida berish zarur bo'ladi.

Oliy o'quv yurti talabalari ixtisoslik fanlarini o'rganishda har bir mavzuni to'la o'zlashtirish maqsadida darslik va o'quv qo'llanmadan tashqari dissertatsiya ishlarini, monografiya va risolalarni, ilmiy maqolalarni ham o'qiydilar. Bu xildagi mustaqil ishlar talabalarni ijodiy va ilmiy izlanishga, tadqiqotchilikka o'rgatadi

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, eng iste'dodli, o'tkir zehqli, intellektual qobiliyatlari yuqori bo'lgan talabalar ikkinchi va uchinchi guruhga tegishli mustaqil ishlar bilan ko'proq shug'ullanadilar (12). Ular chuqur ilmiy asoslangan bilim olishlari bilan birga bo'lajak kasblarining eng nafis va nozik tomonlarini ham aniq tasavvur eta oladilar. Bunday talabalar ijodiy ishlar, ilmiy tajribalar qo'yish, dasturlar tuzish, turli tanlovlar va fan olimpiadalarida ishtirok etish, bitiruv malakaviy ish mavzularini kelajakda magistrlik va nomzodlik dissertatsiyalariga aylantirish harakatida bo'ladilar. Bu xildagi ishlarning barchasida o'quv reja va dastur doirasidan chetga chiqib ketish xollari uchraydi.

Talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ishlar o'qituvchi, ustoz-murabbiy tomonidan o'z vaqtida tekshirib, munosabat bildirib, yutuq va kamchiliklari ko'rsatilib borilganda ijobiy natija beradi. Ba'zan talabaning dastlabki izlanish natijalari juda sodda, axborot tarzidagi tushunchalarni ifodalaydi. Bunday xollarda o'qituvchi to'g'ri maslahat berishi, ilmiy-ijodiy izlanish metodlari, vositalari, shakllari va qonun qoidalarini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hech qachon umidsizlik keltirib chiqaradigan, kamsitadigan, keskin inkor etiladigan fikrlarni aytmalik kerak. Hech bo'lmaganda o'zi uchun

“kashfiyot” qilgan, aqli va kuchini sarflagan, o’zining qimmatli vaqtini ayamagan o’quvchida shakllana boshlagan yangilik yaratish qobiliyatini so’ndirmaslik darkor.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning zarur shartlaridan biri o’qituvchi o’quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlovchi, yo’naltiruvchi, maslahat beruvchi, hamkorlik qiluvchi shaxs hisoblanadi (3,14). Shu sababli o’qituvchining o’zi ham mustaqil ta’limning turlari, toifalari va printsiplari bilan yaxshi tanish bo’lishi lozim bo’ladi. Amaldagi nizomlarga ko’ra o’qituvchi fan dasturini to’liq tahlil qilib, qaysi mavzular mustaqil ish sifatida o’rganilishini belgilab, bu jarayonning samarali bo’lishi va kutilgan natijalarga erishmoq uchun quyidagi talablarga rioya qilinishi talab etiladi:

- nima maqsadda berilayotganligi (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o’zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish va h.k.) aniq bilish;

- bajariladigan vazifalar, topshiriqlarning aniq va ravshan belgilashi;

- talabalarning topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan etarli darajada xabardor bo’lishini ta’minlash;

- maslahat va boshqa yordam turlarining to’g’ri belgilanishi (yo’llanma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, topshiriqlarni bajarish usullari bo’yicha tushuncha berish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo’yicha ko’rsatma berish, muammoli tomonlarini birgalikda hal qilish va h.k.);

- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilashi;

- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq ko’rsatib berishi (amaliy seminar, laboratoriya mashg’ulotlari, maslahat uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma’ruza yoki referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, kuzatuv-monitoring va ijodiy ishlar; bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish va h.k.). Ushbu talablarga amal qilib, talaba mustaqil ishlari tashkil qilinsa, oliy ta’lim muassasalarida o’z sohasining etuk mutaxassislari tayyorlashga zamin yaratiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, talabalar mustaqil ishi o’quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida oliy ta’lim tizimida ijodiy fikrlovchi, raqobatbardosh va mustaqil qaror

qabul qila oladigan kompetentli mutaxassislar tayyorlashda eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Milliy Etsiklopediyasi, 2004. 4-tom. - B. 682.
  2. Karshibaev X., Suvanov O.S., Karshibaev J.X. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari. - Guliston, 2011.- 60 b.
  3. Karshibaev X.K. Oliy ta'limda biologiya fanidan o'quv mashg'ulotlarini kompleks loyihalashtirish // Ta'lim muammolari, 2008. № 3-4. - B. 4-9.
  4. Tolipova J. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish // Xalq ta'limi, 2016. № 4. - B. 102-103.
  5. Boltaeva M., Dadamirzaev F. Mustaqil ta'limni shakllantirishning metodogik asoslari //Ta'lim muammolari, 2008. № 1. - B. 78-79.
  6. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma.- Guliston, 2009. - 15 b.
  7. Qarshiboev H.Q., Suvonov O.S., Qarshiboev J.H. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan muammoli topshiriqlarni tayyorlash va talabalar mustaqil ishlarida foydalanish bo'yicha ayrim tavsiyalar . – Guliston, 2009. – 15 b.
  8. Tojiev M., Karshibaev X.K. Malakali mutaxassislar tayyorlashda elektron ta'lim resuslarning roli //Universitet axborotnomasi, 2016. № 3.- B. 58-60.
  9. Shalashova M.M. Kompleksnaya otsenka kompetentnosti buduhix pedagogov.// Pedagogika, 2008. № 7. - S. 54-59.
  - 10.** Xodjiev M. T., Eshnazarov D. A. Oliy ta'lim muassasalari texnika yo'nalishi bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari // Universitet axborotnomasi, 2020. N 3. - S. 3-12.
  11. Markova A.K. Psixologiya professionalizma.- M.: Prosvehenie, 1996.-192 s.
  12. Karshibaev X.K., Umurzakova D. Mutaxasis kompetentligini shakllantirishda mustaqil ta'limning roli // GulDU axborotnomasi, 2013. № 2. - B. 67-72.
  13. Botanika fani o'quv dasturi – Toshkent: O'zMU, 2024.- 30 b.
  14. Abdalova S. Talabaning o'quv faoliyatida mustaqil ishning o'zni va ahamiyati // Ta'lim muammolari, 2008. № 1. - B. 70-71.
-

---

**TALABA MUSTAQIL ISHII VA KOMPITENTLIKNI  
SHAKLLANISHI.- GULISTON, 2026. -18 B.**

( Elektron kontent )

**Muallif :** Karshiboev H. K. - Guliston davlat universiteti professori, b.f.d.

*E-mail: hkarshibaev\_53@ mail.ru*